



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



“ALISHER NAVOIY ASARLARI TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DA DINIY-IRFONIIY SO‘ZLARINING BERILISHI

Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Jo‘rayeva Nodira

TerDPI 1-kurs magistri

ANNOTATSIIYA. Maqolada “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da uchraydigan diniy-irfoniiy leksikaning talqin xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shoir asarlarida uchraydigan “g‘afur”, “g‘affor”, “g‘afforlig”, “g‘urbat”, “g‘ufon” kabi leksik birliklarning Qur‘on, hadis va tasavvuf ta‘limotlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Diniy-irfoniiy terminlarning lug‘aviy, ma‘naviy va tasavvufiy qatlamlari izohli lug‘at asosida yoritilib, Navoiyning badiiy-uslubiy mahorati va tasavvufiy dunyoqarashining leksik ifodalanishi tadqiq etiladi. Tadqiqot izohli lug‘atning navoiyshunoslik va tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Tasavvufiy leksika, irfoniiy tushunchalar, Navoiy poetik tili, diniy-ma‘naviy mazmun, mumtoz adabiyot, ruhiy kamolot

АННОТАЦИЯ. В статье проводится научный анализ особенностей толкования религиозно-мистической лексики в «Толковом словаре языка произведений Навои». Рассматриваются такие лексические единицы, как «гафур», «гаффор», «гаффорлиг», «гурбат», «гуфрон», и раскрывается их связь с Кораном, хадисами и суфийским учением. Выявляются лексические, духовные и суфийские пласты этих терминов на основе словарных пояснений, анализируется художественно-стилистическое мастерство Навои и выражение его мистического мировоззрения в языке. Исследование подчёркивает научную значимость данного словаря для навоиведения и языкознания.

Ключевые слова: Суфийская лексика, ирфонийские понятия, поэтический язык Навои, религиозно-духовное содержание, классическая литература, духовное совершенствование.

ANNOTATION. The article presents a scholarly analysis of the interpretation of religious and mystical vocabulary in “The Explanatory Dictionary of the Language of Alisher Navoi’s Works.” It examines lexical items such as “ghafur,” “ghaffor,” “ghafforlig,” “ghurbat,” and “ghufon,” highlighting their connections to the Qur‘an, Hadith, and Sufi teachings. The linguistic, spiritual, and mystical layers of these terms are explored through dictionary explanations, while Navoi’s stylistic mastery and the expression of his Sufi worldview through language are analyzed. The study demonstrates the scientific significance of the dictionary for Navoiy studies and linguistic research.



Keywords: Sufi vocabulary, irfani concepts, Navoiy's poetic language, religious-spiritual content, classical literature, spiritual perfection.

Alisher Navoiy yashab ijod qilgan davrdan buyon qariyb besh yuz sakson yildan ortiq vaqt o'tdi. Shu uzoq tarixiy masofada tilimizda ko'plab o'zgarishlar yuz berdi: Navoiy qo'llagan ayrim so'zlar bugungi o'zbek tilida iste'moldan chiqib ketdi, ba'zilarining esa ma'nosi butunlay o'zgarib, yangi semantik tus oldi. Shu bois Hazrat Navoiyning boy adabiy merosini to'la anglash, uning asarlaridagi ma'no nozikliklarini teran idrok etish uchun maxsus lug'atlar zarur bo'ladi. Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlar tuzish jarayoni shoir hayotligidayoq boshlangani e'tiborga sazovordir. Husayn Boyqaro farmoni bilan uning asarlarida uchraydigan murakkab so'z va iboralarni sharhlash, tartibga solish ishlari yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik bu an'ana davom etib, XX asrning 80-yillarida to'rt jilddan iborat "Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" nashr etildi. Ushbu nufuzli nashr adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida muhim voqea sifatida baholandi.

Navoiy asarlarida barcha muhim hayotiy va axloqiy masalalarga doir qarashlari o'z ifodasini topgan bo'lib, bu qarashlarning barchasi islomiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov shoirning ijodiy faoliyatini baholar ekan, "Navoiy o'z ijodida "Qur'on" va "Hadis"ga suyangan holda, ularga yaqin turib eng yuksak badiiy darajalarga ko'tarila olgan; uning yaratgan she'riy satrlari aynan shu manbalar ta'sirida chuqur hayotiy mazmun va yuksak go'zallikka ega bo'ladi", – deb ta'kidlaydi.

"Navoiy dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo'lsak, uning markazida, shubhasiz islom axkomi va tasavvuf ta'limoti yotadi,–deb yozadi N Komilov. Zero, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi insof, saxovat va muhabbat haqidagi fikr-o'ylari, ezgulikka payvast buyuk tafakkur olami shu ta'limot negizida shakllandi"

Shoirning diniy-irfoniy leksikasini tashkil etuvchi atamalar nafaqat diniy tushunchalarga, balki murakkab ruhiy holatlarga ham ishora qiladi. "G'afur", "G'affor", "g'afforlig'", "g'urbat" va "g'ufron" singari birliklar ana shunday ma'no-mazmunning yuksak namunasi bo'lib, ular Qur'on oyatlari, hadislar hamda tasavvufiy konsepsiyalar bilan bevosita bog'liq.

"G'afur" va "G'affor" ismlari Allohning "Asmo-ul Husna" — go'zal ismlari ichida keltirilgan bo'lib, ular kechirish, mag'firat qilish, bandalar gunohlarini yuvish kabi ilohiy sifatlarni bildiradi. "G'afur" — Allohning muntazam mag'firat qiluvchi, gunohlarni pardalovchi zot ekanini anglatadi. "G'affor" — bemisol darajada ko'p kechiruvchi, bandalarning takror va ko'p qilgan gunohlarini ham mag'firat etuvchi sifatdir. Tasavvufiy manbalarda bu sifat insonning Alloh huzuridagi oqizligini, nafsiiy kamchiliklarining faqat yuksak ilohiiy marhamat bilan yuvilishini bildiradi. Navoiyning:



Qurb ayvoniga taqviy yolidin gom urg'an,
Vosili borgohi qodiru g'affor qani?!

Xazoyinul-maoniy, IIa-405.

misrasi tasavvufdagi "vosil bo'lish" – Haqqa yetishish g'oyasining aynan kechirim va rahmat yo'li orqali amalga oshishini ko'rsatadi.

"G'afforlig" – Allohning cheksiz kechirimli zot ekanini bildiruvchi ismning mavhum ot ko'rinishi bo'lib, tasavvufda u ikki yo'nalishda talqin qilinadi:

a) Ilohiy sifatning to'laqlonligi: Allohning kechirim, mehr va lutf bilan bandalarga murojaat etishini ifodalaydi.

b) Sufiy axloqi bilan bog'liqligi: murid o'zida Allohning sifatidan "rang olish" (takhalluq bi-axloqillah) tamoyiliga ko'ra, mehribonlik, bag'rikenglik, kechirimlilikni odat qilishi shart.

Navoiy:

Sendadur ham birlig'u ham borlig',
Haylig'u qodirlig'u g'afforlig'.

Lisonut-tayr, 6-3.

deya ilohiy qudrat va mehr uyg'unligini ko'rsatadi. Bu tasavvufdagi "jalol" (qahhorlik) va "jamol" (rahmat) sifatlarining mutanosibligiga ishora qiladi.

"G'urbat" lug'aviy jihatdan musofirlik, o'z yurtidan uzoqlashish, yolg'izlik ma'nolarini bildiradi. Tasavvufda esa bu so'z ruhning haqiqiy vatanidan – ilohiy manbaidan uzoqligini anglatadi.

Tasavvufiy adabiyotda olam "g'urbat uyi", ya'ni vaqtincha maskan sifatida talqin qilinadi. Insonning vazifasi – Haqqa qaytish, "yurtiga qaytish"dir. Navoiyda:

"Kel bu g'urbatdin rahil og'oz qil,
Ul chaman sori yana parvoz qil."

Lisonut-tayr, 30-91.

Shuningdek, "g'urbat" so'zining jismoniy g'urbat – yurtidan yiroqda yashash; ruhiy g'urbat – insonning ma'naviy yolg'izligi, qalb iztirobi; oxirat g'urbati – jisimiy dunyodan Haq mulkiga ko'chish kabi ma'nolari ham mavjud.

Navoiyning:

"Barcha g'urbatga xirom ayladilar,
Xuld bog'ini maqom ayladilar."

Xazoyinul-maoniy, IVa-421.

bayti uchinchi ma'noga, ya'ni oxirat manziliga ishora qiladi.

"G'ufron" – kechirim, mag'firat degani bo'lib, Qur'onda bandaning eng ulug' orzularidan biri sifatida qayd etiladi. Tasavvufiy talqinda g'ufron uch bosqichni o'z ichiga oladi:

a) Zohiriy g'ufron – gunohning avf qilinishi.



b) Botiniy g'ufon – qalbning poklanishi.

c) Haqiqat darajasidagi g'ufon – banda o'z “men”idan voz kechib, ilohiy rahmatda yo'qolishi (fano). Navoiyning:

“Gar elga bahri g'ufoning havasdur,

Chu ul khasdur anga bir qatra basdur.”

Farhod va Shirin, 12.

bayti Allohning mag'firati “bahri bila o'lchanmas” ekanini, inson esa uning oldida faqat “qatra” ekanini badiiy tarzda ko'rsatadi.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, Navoiy asarlaridagi diniy-irfoniy leksika shoir dunyoqarashining markaziy o'qi bo'lib, uning badiiy estetikasi, falsafiy xulosalari va ma'naviy g'oyalarini anglashda kalit vazifasini bajaradi. Shu bois izohli lug'at bu so'zlarning tarixiy, semantik va tasavvufiy mohiyatini chuqur asoslab berishi bilan nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, tarix, falsafa va tasavvuf tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy manba sifatida qadrlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. T.: Fan 1985
2. Хайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти (тадқиқотлар, мақолалар,
3. лавҳалар). – Т.: Фан, 1996
4. Комилов Н. Хизр чашмаси. Тошкент: “Маънавият”, 2005. 3-б
5. Ortiqaliyeva, G. M. (2021). “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati” mobil ilovasini yaratish – davr talabi. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiyasi materiallari, 1(1), 194–198. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDOTAU.